



LUG'ATLARDA UCHRAYDIGAN DINIY SO'Z VA BIRIKMALARNING LINGVISTIK TAHLILI

Ubaydullayeva Qunduzxon

Termiz davlat universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: Xidirova Iroda Xolmurzayevna

Annatatsiya: Ushbu maqolada “Devonu lug'atut turk”, “Muhokamat ul-lugattayn” va Attuhfatuz zakiyatu fil luğatit turkiya” asarlaridan keltirilgan diniy so‘z va birikmalarning lingvistik tahliliga alohida töxtalib o‘tilgan.

Kalit sòzlar: “Devoni lugatut turk”, “Attuhfatuz zakiyatu fil luğatit turkiya”, “Muhokamat ul-lugattayn”, e’tiqod, din.

Lingvistikada teonomokaga oid izlanishlar qadim- qadamlardan buyon davom etib kelinmoqda. Teonomika so‘ziga to’xtaladigan bo‘lsak, bu so‘z **yunon tilidan olingan bo‘lib** ozóç – “Xudo”+ övuqa “Ism” “Nom” ayni ilohiyat ma’nosini ifodalovchi bir tushunchaning mifonomik bir ko’rinishi hisoblanishini Termiz davlat universiteti magistranti Xolibekova Munisa özinining “Lingvistikada teonomiyaning tadqiqi” nomli maqolasida aytib o’tgan.

Mahmud Koshg‘ariyning “Devoni lug‘atut turk” (keyingi o‘rinlarda MK), Alisher Navoiyning “Muhokamat ul-lug‘attayn” (keyingi o‘rinlarda ML) va “Attuhfatuz zakiyatu fil lug‘atit turkiya” asarlaridagi diniy birikmaga oid so‘zlarni qiyoslab chiqiladigan bo‘lsa, ushbu lug‘atlarda juda ko‘p so‘zlarni bir biridan farqini ko‘rishimiz mumkin.

Turkiy lug‘atdagi Xudo so‘zini leksik jihatdan tahlil qilinadigan bo‘lsa – Эзи (114-b) va Баят – ulug‘ Tangrining nomi (argular tilida) (186-b), Tänri so‘zi esa (M.K.) hamma qabilalar uchun umumiy so‘z bo‘lib, Xudo ismi ma’nosidagi bayot so‘zining arguvchasiidir (A.T. 9-b), shuningdek, jaküttö so‘zi ham (A.T) asarida Tangri so‘zi ma’nosida keltirilgan (30-b). so‘zlar misol qilib olingan. (A.T) asarida esa, ham leksik ham semantik tahlili kuzatiladi дурутчи – yaratuvchi (194-b) bunda so‘zining leksik ham semantik shakli ham yuqoridagi so‘zlarda keskin farq qiladi.

Payğambar so‘zi ham leksik jihatdan tahlil qilinganda (M.L 29-b) asarida анбиё Мукарраби борий – Xudoning yaqini ma’nolarida (M.L 42-b), (A.T176-b) asarida esa Элчі ma’nolarida keltirilgan.

Taqvodor so‘zining ham lug‘atlarda turli xil variantlarini uchratishimiz mumkin. Masalan; Кäшш – ibodatchi (A.T. 61-bet), Мутадаййин – dindor, taqvodor (M.L. 41-bet), My’takid – e’tiqodli, ishonchli (M.L. 41-bet), Мутакки – taqvo qiluvchi, diniy buyruqlarni bajaruvchi (M.L 41-bet), Табуг – toat-ibodat qilish (M.K 354-bet), Зухд – zohidlik, taqvodorlik (M.L. 35-bet), Соимуд дахр – doimiy ro‘za tutuvchi (M.L 46-bet) doimiy ro‘za tutuvchi kishilarga ham taqvodor sòzini qòllasak maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Yuqorida keltirilganidek, (M.L) asarida taqvodor so‘zining juda ko‘plab variantlarini uchratishimiz mumkin. Taqvodor insonlar Allohning va payg‘ambarimiz Muhammad (s.a.v) ning so‘zlariga va buyruqlariga so‘zsiz itoat etuvchi kishilardir.



Go‘r so‘zi ham diniy so‘z bo‘lib ushbu lug‘atlarda juda ko‘p shakllari keltirilgan. Köp – go‘r (A.T. 101-bet), Сім – go‘r (M.K. 152-bet), Турбат – qabr (M.L 48-bet), Тублу – go‘r, qabr (M.K 405-bet). Ushbu so‘zga qo‘sishimcha qilib “ko‘mmoq” so‘zining ham turli variantlarini keltirib o‘tmochchiman. Misol uchun, (A.T) asarida Котді – ko‘mmoq, (M.L) asarida esa Тадфин – dafn qilish, ko‘mish, shuningdek, Такфан – kafanlash, kafan (M.L 48-bet) kabi ma’nolari qo‘llanilgan bu so‘zlar yana tobut so‘zi bilan ham chambarchas bog‘liq bo‘lib, tobut so‘zining (A.T) asarida Апса – Tobut (M.L) asarida Ha’ш – tobut so‘zlar keltirilgan.

Tahorat sözini sintaktik tahliliga töxtalib o‘tilganda Вузу – tahorat ot so‘z turkumi (M.L 32-bet) Жунді – tahorat qildi fe’l so‘z turkumi doirasidagi diniy so‘z va birikmalarni ham uchratish mumkin. (M.K. 73-bet).

Jannat so‘zining ham leksik-semantik tahliliga to’xtalganda, lrksik jihatdan so‘zlarning bir-biridan farqi kuzatiladi. Masalan: Равзай жинон – jannat боғи (M.L. 44-bet), Учмак – jannat (A.T. 37-bet), Фирдавс – bog‘, jannat (M.L. 49-bet) bunga bunga antonim sifatida esa, Таму – dòzax (A.T. 38-bet) sözlari ham keltirilgan. Bu so‘zlarning barchasi sintaktik tahlil tamoyiliga ko‘ra ot so‘z turkumidagi doirdir.

So‘zlarni fonetik-fonologik tahlil qilishda bir tovush bilan faqr qiladigan diniy so‘zliklarni keltirib o‘tilgan. Masalan: Jek – shayton (A.T. 196-bet), Јэк – shayton (A.T. 200-bet), Јэл – jin (M.K. 158-bet) kabi so‘zlarda bir tovush bilan farqlanganligini uchratish mumkin.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki ushbu lug‘atlarni lingvistik tahlil qilish jarayonining morfologik tahlilida ko‘pincha ot va fe’I so‘z turkumidagi oid so‘zlarni uchratish mumkin. Shuningdek, diniy so‘z va birikmalarning leksik – semantik tahliliga ham to‘xtaladigan bo‘lsak yuqoridagi lug‘atlarda leksik jihatidan farq qiluvchi juda ko‘p so‘zlar keltirilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jo‘rayeva, M., & Xidirova, I. (2023). QOYALAR HAM YIG’LAYDI” ASARIDA QO’LLANILGAN DIALEKTIZMLARNING LEKSIK-SEMANTIK TAHLILI. Development of pedagogical technologies in modern sciences, 2(2), 42-48.
2. Qizi Jo‘rayeva, M. S., & Xidirova, I. X. (2023, January). “TEMIR XOTIN” DRAMASINING FONETIK-FONOLOGIK TAHLILI. In INTERNATIONAL CONFERENCES (Vol. 1, No. 1, pp. 492-496).
3. Xidirova, I. ., & Dobilova, M. (2023). IMLO MUAMMOLARI VA YECHIM. Modern Science and Research, 2(3), 138–141.
4. Alisher Navoiy “ Muhokamat ul-lug‘attayn”
5. Mahmud Koshgariy “Devoni lug‘atut turk”
6. “At tuhfat-uz zakiyatu fil luğatit turk” O’zbekiston. SSR. “Fan”, Toshkent-1968.
7. “Lingvistikada teonomiyaning tadqiqi” Xolibekova Munisa Sobirovna